

ZAMONAVIY MUSIQANING BUGUNGI HAYOTIMIZDAGI O'RNI VA TA'SIRI

Samijonova Ruhshona

O'zbekiston davlat konservatoriyasi "Cholg'u ijrochiligi" fakulteti "Xalq cholg'ulari" yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Axadjon Mamadaliyev

*Ilmiy raxbar: O'zDK "Xalq cholg'ularida ijrochilik" kafedrasi dotsenti,
Turon fanlar akademiyasi faxriy professori*

Annotatsiya: Ushbu maqolada musiqa, shu jumladan zamonaviy musiqalarning hayotimizda tutgan o'rni, uning ta'sir doirasi, yoshlarda musiqiy estetikani rivojlantirish yo'nalishlari va shu kabi masalalar yuzasidan so'z yuritiladi. Zero zamonaviy musiqalar bugungi kunda har bir shaxsning hamrohi bo'lib, usiz hayotni tasavvur qilib bo'lmaydi.

Kalit so'zlar: musiqa, ta'sir, estetika, yoshlar, estrada, kuy, ashula.

Qadim tarixdan bizga ma'lumki, musiqa ellarni-ellarga, dillarni-dillarga bog'lovchi, insonni estetik didini tarbiyalovchi hamda madaniy saviyasini oshiruvchi mo'jizaviy vositadir. Musiqa bu tarbiyaning eng faol turi hisoblanadi. Bola tug'ilgandan so'ng ilk bor ona allasini tinglab musiqani his qiladi. Ona allasiga, vatanga muhabbat ona yurtiga sadoqat kabi buyuk insoniy his-tuyg'ular mujassamdir.

Musiqa ta'limi va tarbiyasi insonni komil inson qilib tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Buyuk islohatlar amalga oshirilayotgan hozirgi kunda mustaqil fikrlovchi kishilar o'zlari tanlagan kasblari bo'yicha har xil fanlarga ixtisoslashgan umumta'lim maktablarida, o'rta maxsus kasb-hunar kollejlarda tahsil olmoqdalar. Musiqa ta'limi asosan musiqa va san'at maktablarida darslardan tashqari tashkil etilgan. Musiqa to'garaklarida o'rgatiladi. Komil inson tarbiyasida ana shunday

musiqa va san'at maktablari va to'garaklarning o'rni va ahamiyati katta. Yosh avlodni san'at maktablariga jalb qilish ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil qilish samarali natijalar beradi.

Tarbiya tizimi ta'lim tizimi bilan uzviy bog'liq. Tarbiyasi talab darajasida bo'lgan har qanday o'quvchi ta'limni juda yaxshi o'zlashtiradi. Shuning uchun komil inson tarbiyasida bu muhim ahamiyat kasb etadi.

Yosh avlodni yuksak madaniyatli estetik didi yuqori darajada rivojlangan komil insonlar qilib tarbiyalashda musiqiy ta'limning ahamiyati beqiyosdir. Xususan, o'zbek musiqa san'ati bu borada katta imkoniyatlarga egadir. Ma'lumki o'quvchilarni musiqiy estetik ruhda tarbiyalash jarayoni, birinchidan musiqa pedagogikasining asosiy umumiy tamoyillariga rioya etilishiga, ikkinchidan didni tarbiyalash bilan bog'liq bo'lgan maxsus shart-sharoitlarni ta'minlashga asoslanishi lozim. Musiqiy estetik didni shakllantirish jarayoni musiqani idrok etish qobiliyatini rivojlantirish bilan bevosita bog'liqdir. Bunda eng avvalo musiqiy idrokni ta'minlovchi tarkibiy qismlarini tamoyillarini tilga olish zarur bo'ladi.

Ikkinchi tamoyil san'at pedagogikasi talablariga rioya qilishdan iborat bo'lib u idrok etishdagi yaxlitlikni obrazlilikni xissiy va anglangan taassurotlar birligini va ularning o'zaro bog'liqligini ta'minlashdan iborat.

Uchinchi tamoyil bola shaxsini rivojlantirishning tabiiy va madaniy jihatlarini birga qo'shib olib borish zarurligidir. Bu tamoyil boladagi tabiiy iste'dod, qobiliyatlar, xususiyatlardan musiqiy tarbiya jarayonida samarali foydalanishni ularni tashqi pedagogik ta'sirlar yordamida yanada rivojlantirishni taqozo etadi.

Yuqorida sanab o'tilgan tamoyillarni shakllantirish shart-sharoitlari o'quvchilarni musiqiy tarbiyalashning bosqichligi ulardagi o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olish, o'quvchining ijodiy faoliyatini rivojlantirish darsda o'quvchi bilan o'quvchi aloqasining shakli bo'lgan muloqot etnopsixologik xususiyatlar va xalq pedagogikasi usullarini hisobga olishni nazarda tutadi hamda o'quvchilarning musiqiy estetik didini shakllantirish jarayoni samaradorligini oshiradi.

Bu samarali pedagogik usullarni qo'llash jarayonida shu narsani hisobga olish muhimki, musiqiy idrokning tarkibiy qismlarini rivojlantirish musiqaga bo'lgan

xissiy ongli va ta'sirchan amaliy munosabatni shakllantirish vazifasini hal etishga qaratiladi. Mazkur jarayon yaqqol ifodalangan hissiy aniq-obrazli idrok etishdan yanada ko'proq anglab etilgan idrok etish bosqichiga o'tishni o'z ichiga oladi.

Albatta musiqiy estetik didni shallantirish jarayoni musiqiy idrok etishning umumiy qonuniyatlari bilan bog'liqdir, lekin ayni paytda uning faqat o'zigagina xos bo'lgan xususiyatlarga ham egadir. Musiqiy estetik didni shakllantirish jarayonida ongli faol munosabat mavjud bo'lishi nazarda tutiladi. Bu munosabat idrok etish jarayonini alohida (individual) estetik baho berish darajasigacha ko'tarilishi lozim. Shuning uchun ham kichik yoshdagi o'quvchilarning musiqiy estetik didini shakllantirishga bevosita bog'liq bo'lgan musiqa mashg'ulotlarida bolalarning bilish, his qilish faoliyatini kuchaytirish kerakki, u umumiy va maxsus qobiliyatlarini rivojlantirishga va pedagogik ta'sir ko'rsatishni tashkil etish bosqichlariga bo'linadi. Pedagogik ta'sir ko'rsatishni tashkil etish bosqichiga musiqiy taassurotlarning to'planishi; o'quvchilarga turli xissiy holatlarni boshdan kechirishga imkon berish; xissiy musiqiy tasavvurlarga qaytilishi; «Tinglab tushunish» yoki «Ijro etib-tushunish» tajribasini boshqa asarlarga ham tatbiq etish jarayonini rag'batlantirish kabi shartlar kiradi.

Ta'kidlash lozimki, musiqa san'ati juda qadimda paydo bo'lgan. Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida yashagan odamlar tabiatdagi musiqiy va shovqin tovushlarni farqlay bilganlar, kuylashni o'rganganlar, dastlabki cholg'u sozlarini yaratganlar. Hozirgi kungacha bu sozlar takomillashgan, ulardagi ijro uslublari ham rivojlanib boyigan. Xalq orasidagi musiqiy qobiliyatlarga ega bo'lgan kishilar ajoyib musiqa asarlari yaratib musiqa san'atini boyitganlar.

Musiqiya san'ati paydo bo'lgandan boshlab bugungi kungacha ikki yo'nalishda rivojlangan, degan fikr o'rinli. Birinchi yo'nalish - xalq musiqiy ijodi. Ikkinchi yo'nalish - kompozitorlik ijodi.

Qadimda xalq orasida xonanda va sozandalar yashagan. Ular kuy va qo'shiqlar yaratganlar. Bu asarlar nota yozuvi bo'lmaganligi sababli og'izdan-og'izga o'tib bizgacha etib kelgan. Kim yaratganligi noma'lum bo'lgani sababli bu asarlarni xalq musiqiy ijodining mahsuli deyiladi. Ma'lumki yaratuvchanlik, ijod, insonga xos

fazilatdir. Har bir avlod kuy va qo'shiqlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritgani uchun bu asarlar xalqniki degan fikr asoslidir.

Kompozitorlik ijodi nota yozuvi paydo bo'lgandan so'ng rivojlangan. Kompozitorlar o'z asarlarini nota bilan yozadilar. Bu yerda muallif aniq bo'lgani sabab ularning asarlari xalq musiqiy ijodi namunalaridan alohida turadi.

Har bir san'at turining o'z janrlari bo'lgani kabi musiqa san'atining ham o'z janrlari bor. «Janr» so'zi frantsuzcha bo'lib “san'at asarining turi” degan ma'noni bildiradi. Masalan, rassomchilikda portret, natyurmort, peyzaj kabi janrlar bor. Musiqa san'ati janrlari ikki xil:

1. Xalq musiqa ijodi janrlari.
2. Kompozitorlik ijodi janrlari.

Masalan o'zbek musiqasida xalq musiqa ijodi janrlari quyidagilardir:

1. Qo'shiq
2. Maqomlar
3. Dostonlar
4. Katta ashula va boshqalar.

Kompozitorlik ijodi janrlariga quyidagilar kiradi:

1. Opera
2. Balet
3. Simfoniya
4. Sonata va boshqalar.

Xalq musiqa ijodi va kompozitorlik ijodini solishtirganda xalq ijodi balandroq turishini e'tirof etish zarur. Xalq ijodi doimiy ravishda kompozitorlarga namuna bo'lib kelgan. Kompozitorlik ijodi xalq musiqiy me'rosi namunalari ta'sirida rivojlangan.

Bizga tarixdan ma'lumki, har bir xalqning o'z musiqa san'ati bor. Boshqa san'at turlari bilan bir qatorda musiqa ham xalq ma'naviy taraqqiyotining ko'zgusi hisoblanadi. Musiqa san'ati asarlarida xalqning hayoti, turli davrlardagi ijtimoiy turmushi, urf-odatlarini, din-diyonati, axloqi haqidagi qarashlar o'z aksini topgan.

Demak, musiqa insoniyat bilan necha asrlardan beri hamrohlikda kelmoqda.

Insoniyatning dunyo qarashi tafakkuri boyigani sari uning musiqasi ham o'zgarib bordi. Har bir zamonda insoniyat musiqani o'ziga moslashtirib keldi. Shuning uchun musiqani har kim o'zicha har xil tushunadi. Kimdir uchun musiqa bu oddiy tovushlar yig'indisi, kimdirlar uchun esa fizik xodisa namunasi, kimdir uchun hayotining ajralmas bir qismi bo'lib xizmat qiladi. Uning hayotimizdagi o'rni beqiyos.

Musiqani eshitmaydigan uni tinglamaydigan odam bo'lmaydi mening nazarimda. Sababi hech bir qalb yo'qki musiqa uning eshiklarini ochib kira olmagan bo'lsa. Inson suvga tashna bo'lgani kabi uning ruhi ham musiqaga tashna bo'ladi. Bu insonning o'ziga sezilishi yoki sezilmasligi ham mumkin. U jismoniy hamda aqliy mehnatdan keyin insonga ketgan ruhiy energiya ba'zasi to'ldirib, asab tizimini tinchlantirish xususiyatiga ega. Bu hususiyat nafaqat insoniyatga balki hayvonot olami vakillariga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi.

Qadimda odamlar yirtqich hamda yovvoyi hayvonlarni ovlashda va ularni qo'lga o'rgatishda ham musiqa sadolaridan foydalanishgan. Musiqani yana bir xususiyati borki u bevosita odamni raqsga tushishga undaydi. Agar musiqa quloqni qiyomatga keltirgudek bo'lsa u odamni vahimaga, qo'rquvga solib qo'yadi.

Buyuk sarkarda sohibqiron Amir Temur bobomiz ham yurishlarida karnaychi va nog'orochilarni va zarbli cholg'uchilarni o'zi bilan olib yurgan, yurish qilayotgan hududiga dastlab erta tongda musiqachilarni yuborgan, ular quloqni qiyomatga keltirib odamlarda vahimani uyg'otgan, bundan qal'a ichkarisidagilar gangib qolgan, ruhiy zarba olgan qo'shin tabiiyki jangga kirisha olmagan.

Sohibqiron esa kam yo'qotishlar evaziga o'lkalarni qo'lga kiritgan.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki bugungi kunda musiqa, shu jumladan zamonaviy musiqa biz bilan hamohang yashab, rivojlanib bormoqda. Uning hayotimizdagi o'rni beqiyosdir. Musiqa yashash ritmini belgilab bera oladigan darajadagi vosita ekanligini bilib oldik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jahon musiqasi tarixi fanidan o'quv qo'llanma: G'arb musiqasi san'atining XVIII asrgacha shakllanish va rivojlanish davri/ G. va R. Tursunova-Toshkent 2017
2. O'zbek musiqasi tarixi/ T. E. Solomonova – Toshkent “O'qituvchi” 1983
3. Doston navolari/ B. Matyoqubov – Toshkent 2009
4. Mahkamova, S. R. (2021). MAKTAB O'QUVCHILARIDA MUSIQA MADANIYATI DARSLARINING INTEGRALLASHUVI. *Scientific progress, 1(5)*.
5. Xalilova, M. M. (2021). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA MUSIQA TALIM TARBIYASINING DOLZARBLIGI. *Scientific progress, 1(5)*.
6. Solomonova E. «O'zbek musiqasi tarixi». Toshkent. «O'qituvchi». 1983 y.
7. Sharipov O. «Musiqasi o'qitish metodikasi». Ma'ruzalar matni.
8. www.ziyonet.uz